



MORAL QUALITIES IN IDEALIZING UZBEKISTAN NATIONAL HEROES

Yulduz Irgashevna Rakhmatova

Lecturer, National University of Uzbekistan

E-mail: r.yulduz89@gmail.com

Tashkent Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Hero, morality, selflessness, patriotism, justice, ideals, perfection, correctness, decency, literature.

Abstract: The moral qualities of national heroes are emphasized: feelings such as patriotism, selflessness, courage, justice and determination. National heroes are symbols of the nation. With their actions, patriotism, and selflessness, they leave an indelible mark on history and strengthen the national spirit as an example for future generations.

Received: 11.12.25

Accepted: 12.12.25

Published: 13.12.25

O'ZBEK MILLIY QAHRAMONLARINI IDEALLASHTIRISHDA AXLOQIY SIFATLAR

Yulduz Irgashevna Raxmatova

O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi

E-mail: r.yulduz89@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Qahramon, axloq, fidoyilik, vatanparvarlik, adolat, ideallar, komillik, to'g'rilik, odob, adabiyot.

Annotatsiya: Milliy qahramonlarni axloqiy sifatlari: vatanparvarlik, fidoyilik, jasorat, adolat va qat'iyat kabi tuyg'ularga urg'u beriladi. Milliy qahramonlar-millat timsolidir. Ular o'z harakatlari, vatanparvarligi, fidoyiliklari bilan tarixda o'chmas iz qoldirib, kelajak avlodga o'rnak sifatida milliy o'likni mustahkamlaydi.

ПРАВСТВЕННЫЕ КАЧЕСТВА В ИДЕАЛИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНЫХ ГЕРОЕВ УЗБЕКИСТАНА

Юлдуз Иргашевна Рахматова

Преподаватель

Национального университета Узбекистана
 Электронная почта: r.yulduz89@gmail.com
 Ташкент, Узбекистан

О С Т А Т Ь

Ключевые слова: Герой, мораль, самоотверженность, патриотизм, справедливость, идеалы, совершенство, правильность, порядочность, литература.

Аннотация: Подчеркиваются нравственные качества национальных героев: такие чувства, как патриотизм, самоотверженность, мужество, справедливость и решительность. Национальные герои являются символами нации. Своими поступками, патриотизмом и самоотверженностью они оставляют неизгладимый след в истории и укрепляют национальный дух как пример для будущих поколений.

Kirish. Milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash va milliy qadriyatlarni e'zozlash bugungi globallashuv davrida o'zbek xalqining ma'naviy hayotida alohida o'rin tutadi. Ayniqsa, millatimiz tarixida mardlik, fidoyilik, vatanparvarlik, adolatparvarlik kabi yuksak axloqiy fazilatlar bilan ajralib turgan milliy qahramonlarning timsollari bugungi yosh avlod tarbiyasida bebaho manba bo'lib xizmat qiladi. Shu bois, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Yoshlar tarbiyasida tarixiy xotira, milliy g'urur, or-nomus va halollik kabi tushunchalarni chuqur singdirish – davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishidir" [1].

O'zbek milliy qahramonlarini axloqiy sifatleri haqida so'z yuritir ekanmiz, avvalo qahramon so'ziga to'xtalib o'tmoqchimiz. Qahramon bu ko'p qirrali, sodda va sig'imli tushunchadir. Dunyo xalqlarida bu so'z turli ma'noni va butunlay boshqa ma'noni anglatishi mumkin. Masalan kim uchundir, qahramon - kimnidir suvdan yoki suvdan qutqaradigan, bolani qutqarish uchun o'zini mashina ostiga tashlagan odam. Yana kimdir, har kuni vatan uchun xizmat qiladigan, o'z ishini vijdonan va halol bajaradigan kishilarni qahramon deb biladi. Boshqalar esa, adolatsizlikka, johillikka qarshi kurasha oladigan, insonparvarlik, vatnparvarlik kabi axloqiy tamoyillar mujassam bo'lgan hamda yuksak ideallar uchun o'zini qurbon qilishga tayyor bo'lgan insonlarda qahramonlarni ko'radi.

Shuni ta'kidlashimiz joizki, tarix, qadimgi jangchilarni afsonaviy jasoratlaridan tortib, zamonaviy davrgacha bo'lgan, ko'plab qahramonlarini biladi va ular bugun bizni zamonimizda yashayapti. Qahramonlik jang maydonidagi jasorat va tinch hayotdagi fidokorona harakatlarda namoyon bo'ladi.

Qahramonning asosiy fazilatlariga- vatanparvarlik, fidoyilik, jasorat, adolat va qat'iyat kabi tuyg'ularni misol qilish mumkin. Qahramonlar har doim tug'ilmaydi.

Har bir davrning o'z qahramoni bor. Qolaversa har millatning qahramoni bo'ladi. "Milliy qahramon – muayyan millatga, xalqqa mansub bo'lgan shaxsning o'sha millat manfaatlari uchun fidoyilik namunalarini ko'rsatishi ma'nosini anglatadi"[2]

Bunday qahramonlarning ko'plab misollariga tarix guvohlik beradi, ularni har biri davlatning shakllanishi va rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan. Qahramonlar turli davr va ijtimoiy qatlamlardan bo'lsa-da, barchasini bir narsa – adolatga intilish, xalqqa fidokorlik bilan xizmat qilish birlashtirib turadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jang maydonida, adabiyot sohasida va kasb faoliyatida qahramonlik qilgan milliy qahramonlarimiz bor. Ularni bizga ideal tarzda namoyon bo'lishida axloqiy sifatlarni o'rni yuqori. Har kuni inson hayotini saqlab qolgan shifokorlar, o'z jonini shogirdlariga bag'ishlagan o'qituvchilar, rivojlanishga yuksak hissa qo'shadigan kashfiyotlar qiladigan olimlarimiz bor. Bularning barchasini milliy qahramonlarimiz deb hisoblash mumkin, chunki qahramonlik nafaqat urushdagi jasoratda, balki jamiyat manfaati uchun qilinadiga mehnatda namoyon bo'ladi.

Qolaversa, qahramon tushunchasi ko'p jihatdan ayni bir jamiyatning tarixiy va madaniy xususiyatlariga bog'liq ekanligini ta'kidlashimiz joiz. Masalan, qozoq adabiyoti yorqin vakili Anvar Olimjonov asarlaridagi qahramonlar, jumladan "Mambetning nayzasi" romanida "oddiy xalq orasidan yetishib chiqqan Stepan Ranzin, Pugachev, Mamanbey kabi afsonaviy yo'lboshchilar, dovyurak qo'zg'olonchilar ruh bergan bo'lsa ajab emas. Bu qahramonlar ezilgan, xo'rlangan, haqsizlikka duchor qilingan o'z qavmlarinib hurlik ozodlik nuchun, zolimlarga qarshi tengsiz kurashga boshlaganlar va shu yo'lda jon fido qilganlar"[3].

Rus adabiyotida qahramon ko'pincha har qanday to'siqlarga qaramay haqiqatni himoya qiluvchi, adolatsizlikka qarshi kurashuvchi, shaxs sifatida gavdalanadi. Bunday qahramonlar qatoriga Fyodor Dostoevskiyning "Jinoyat va jazo" romanidagi Raskolnikov va Lev Tolstoyning "Urush va tinchlik" romanidagi Fyodor va Per Bezuxov misol qilsak bo'ladi.

Darhaqiqat, o'zbek adabiyoti va xalq og'zaki ijodida yaratilgan badiiy qahramonlar orqali axloqiy ideallar targ'ib etilib kelinmoqda. Jumladan, xalq dostonlaridagi Ravshan, Alpomish, Go'ro'g'li va Kuntug'mish singari obrazlar nafaqat jasorat timsoli, balki axloqiy yetuklik namunasi sifatida ko'riladi. "Yurtimiz barkamol avlodini xalq og'zaki ijodidan mukammal ma'lumotga ega bo'lmagan holda tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki og'zaki ijod dostonlarida vatanga xiyonat qilgandan ko'ra o'limni afzal bilgan Ravshan, butun harakatini parchalangan yurtini birlashtirishga bag'ishlagan Alpomish, o'z Vatanini ichki va tashqi dushmanlardan himoya qilgan Go'ro'g'li, oilasini muqaddas bilgan Kuntug'mish madh etiladi" [4].

Abdulla Avloniy bu haqda shunday degan edi: “Axloq – insonni odam qiladigan, uni jamiyatda hurmatli qiladigan eng katta qudratdir”. Bu fikrlar milliy qahramonlar obrazini ideallashtirishda axloqiy fazilatlar qanchalik muhim o‘rin tutishini tasdiqlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Shunday milliy qahramonlarimiz bor, shunchaki tarixiy shaxs sifatida emas, balki xalqimizning ma’naviy-axloqiy timsoli sifatida qaraladi. Ular nafaqat jasorat, balki hayo, halollik, vijdon, sabr-toqat, adolatparvarlik mehnatsevarlik kabi insoniy fazilatlar bilan ideallashtiriladi. “Ta’qdir Jaloliddinning boshiga ne tashvishlarni giriftor qilmadi: u yiqildi va yana turdi, qalbdagi umid uchquni so‘ndi, ammo bu uchqun yana paydo bo‘ldi. Yaratganning marhamati bilan bu uchqun olovga aylandi. U bu olovning kuch-qudrati nimalarga qodirligini ko‘rsatdi. Bosqinlar ostida toptalgan va qulayotgan davlatni asrab qoldi, uni ulkan mamlakatga, o‘zi esa ulug‘ hukmdorga aylandi”[5].

Tahlil va natijalar. O‘zbek millati tarixida milliy qahramon sifatida uch buyuk shaxs yaqqol e’tirofga sazovor bo‘lgan. Bular o‘zining yurtga sadoqati va g‘ururi bilan nom qozongan Jaloliddin Manguberdi, buyuk sarkarda, yagona davlat tuzgan Amir Temur, o‘zbek tilining asoschisi A.Navoiydir.

Ma’lumki Amir Temur bolaligidan ziyrak, dovyurak, o‘tkir zehnga ega, diniy va dunyoviy bilimlarni, iymonli va vijdonli pok inson bo‘lgan. Amir Temur mohir sarkarda sifatida, harbiy san’atni puxta egallagan, ayni bir strategiya va taktikaga ega bo‘lgan qudratli armiyaga asos slogan. “Harbiy tarix Temurni Osiyoning o‘rta asrlardagi yirik lashkarboshilari qatoriga qo‘yadi. K.Marks ta’kidlaganidek Temur harbiy razvedkaga katta e’tibor bergan.” [6]

Buyuk sarkarda axloq-odob, ta’lim-tarbiya, e’tiqod, borasida yuksaklikka erishgan siymolardandir. U tomonidan yaratilgan axloq qoidalari, pand-nasihatlar, o‘gitlar, binobarin Sohiron bobomiz haqidagi tarixiy asarlar bunga yaqqol misol bo‘ladi.

“Tengsiz azmu shijoat, mardlik va donishmandlik ramzi bo‘lgan bu mumtoz siymo buyuk saltanat barpo etib, davlatchilik borasida o‘zidan ham amaliy, ham nazariy meros qoldirdi, ilmu fan, madaniyat, bunyodkorlik, din va ma’naviyat rivojiga keng yo‘l ochdi”[7].

O‘zbek adabiy tilining asoschisi, xalqparvar davlat arbobi Mir Alisher Navoiyning asarlari bir necha asrdan beri o‘z kuchini yo‘qotmagan. Muta’fakkining bebaho merosi, yurtimiz ma’naviy hayoti hamda jahon adabiyoti tizimida salmoqli o‘rin tutadi. Uning siymosi vatan va xalq saodati uchun o‘z umrini baxshida etgan qahramon sifatida, fidoyi shaxslarni tarbiyalashda hamma davrlar uchun yuksak axloqiy ideal sifatida gavdalanadi.

“Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandasi, millatimizning g‘ururi, sha’n-u sharafigi dunyoga tarannum qilgan o‘lmas so‘z san’atkoridir” [8].

O‘z qat’iyati va jasorati bilan vatanimizni mustaqillikka erishtirgan davlat arbobi Islom Karimov buyuk shaxs bo‘lgan. Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov o‘z xalqiga sadoqati va yuksak axloqiy xislatlarni, ilg‘or siyosiy fazilatlarini o‘zida mujassam etgan millat qahramoni sifatida e’tirof etiladi. U nafaqat mustaqil davlat asoschisi, balki xalqining manfaatlarini har qanday sharoitda ustun qo‘ygan vatanparvar, fidoyi, qat’iyatli va adolatli boshqaruvchi sifatida tarixda o‘chmas iz qoldirdi. Zero, birinchi prezidentimiz vatanparvar va xalqparvar inson sifatida, xalqni erkin va demokratik jamiyat sari yetaklashda mustahkam irodaga ega bo‘lgan, bu yo‘lda har qanday bosim yoki tashqi ta’sirlarga qarshi turishni bilgan. O‘z faoliyati davomida halollik va adolat mezonlarini yuqori darajada saqlagan. Mansab ustuvorligi, poraxo‘rlikka qarshi kurashishni ustuvor vazifa deb bilgan, bu orqali esa davlat boshqaruvida mas’uliyat va axloqiy tozalik tamoyillarini qaror toptirishga uringan. Mustaqillikni ta’minlash, siyosiy barqarorlik va milliy xavfsizlik borasida jasoratli qarorlar qabul qilgan shaxs sifatida, voqeliklarga chuqur yondashgan, o‘z xalqini manfaatlarini ilg‘or strategik yondashuvlar bilan himoya qilgan. Islom Karimov o‘z nutqlarida hamisha ma’naviy qadriyatlar, yoshlarga sog‘lom ruhiy-ma’naviy muhit yaratish, oilaviy tarbiya masalalariga alohida etibor bergan. 2008-yilda yozgan “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” asarida axloqiy qarashlari aks etgan. Bu orqali u jamiyatni axloqan poklash, yoshlarni tarbiyalash ishlariga rahbarlik qilgan. “Islom Abdug‘aniyevichga xos bo‘lgan bukilmaz iroda, fidoyilik, mardlik va vatanparvarlik, insoniylik va adolatparvarlik, samimiylik va mehribonlik kabi olijanob fazilatlar barchamiz uchun yorqin ibrat namunasi bo‘lib qoldi”[9]

Milliy qahramonlar-millat timsolidir. Ular o‘z harakatlari, vatanparvarligi, fidoyiliklari bilan tarixda o‘chmas iz qoldirib, kelajak avlodga o‘rnak sifatida milliy o‘likni mustahkamlaydi.

Biz qahramonlarimizni qadrlaymiz, chunki ularda xalqimizga xos eng yaxshi fazilatlar – matonat, mardlik, donishmandlik, adolatparvarlik, taraqqiyotga intilish mujassam. Ular har birimiz umumiy ishga o‘z hissamizni qo‘shishimiz, xalqimizning buyuk tarixiga aylanib, avlodlarimiz qalbida o‘chmas iz qoldirishimiz mumkinligini eslatadi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, milliy qahramon-bu faqatgina jangda jasorat ko‘rsatgan inson emas, balki har kuni hayot sinovlariga sabr qilib, adolat, halollik va matonatni o‘zida mujassam etgan shaxsdir. Qahramon- el-yurt uchun fidoyilik ko‘satgan namuna bo‘la oladigan yuksak bir timsol. Garchi, har bir inson buyuk ishlarga erisha olmasada, bir insonning ko‘nglida ezgulik uyg‘otib, og‘ir damda madad bo‘lib, mehr-oqibat ko‘rsatib, u insonning nigohida haqiqiy qahramonga aylanishi imkoniga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shavkat Mirziyoyev. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” nutqidan. – T.: O‘zbekiston, 2021.

2. <https://oyina.uz/uz/teahause/2026>
3. Olimjonov A. Turkiy adabiyot durdonalari. “O‘zbekiston” nashriyoti, T; 2022 -5 b
4. Madayev O. “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi” O‘quv qo‘llanma. “Mumtoz so‘z”. T: -21 b
5. Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy “Sulton Jaloliddin Manguberdi” – “O‘zbekiston” T: 2006, –19 b
6. Ibn Arabshoh. “Amir Temur Tarixi”. “Fan”. T: 2018, –56 b
7. Karimov.I “Yuksak ma’naviyat -kuch yengilmas kuch”. Ma’naviyat T: 2008, – 45 b
8. To'xliyev.B, O.To'xliyeva D. Alisher Navoiy hayoti va ijodi: alborn Bayoz, – T: 2013, – 4 b
9. <https://kun.uz/news/2016/09/09/savkat-mirzieevning-parlament-palatalarining-kusma-mazlisidagi-nutki>